ISSN 2181-7138

# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

*Илимий-методикалық журнал*

## *2023*

## 1/1-сан

***Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының 25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды***

***Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды. №01-044-санлы гуўалық берилген.***

Нөкис

# МАЗМУНЫ

## ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ

**Nusratova H. Ch.** Ilmiy-ommabop matn va maqolalarning janriy xususiyati hamda ifoda usullari 6
**Rustamova Z.** Dialektal korpus korpus lingvistikasining o’rganish ob’ekti sifatida 16
**Bakiyeva H. S.** Ona tili ta’limida o‘quvchilarning matn ustida ishlash va matn yararish ko‘nikmalarini shakllantirish 21
**Рамазанова Р. А.** Технология критического мышления на уроках русского языка и литературы 27

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

**Ibadullayev Q. M.** O‘rta talimga innovatsiyalarni joriy etishning mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotidagi ahamiyati 34
**Xolmatova S. K.** Jismoniy imkoniyati cheklangan o‘quvchilar organizmining funksional holatini baholash uslubiyati 38
**Narimbaeva L. K.** Talabalarni intellektual-ijodiy qobiliyatini pivojlantipishning muhim xususiyatlari va komponentlari 44
**Rustamov L. X.** Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirish jihatlari 51
**Tursaotov A. E.** Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirishning pedagogik shartlari 55
**Mirzakarimova M. M.** O‘quvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda clil texnologiyalari 60
**Jumanova F. U.** Dars- ta’limni tashkil etishning asosiy shakli 64
**Обидов А. Э., Джураев А. С.** “Адаптив таълим” ҳодисаси ва унинг ўзига хослиги 69
**Бозорова М. Қ.** Ўқувчи-ёшларнинг миллий-маънавий тарбияси ривожланишида этнопедагогик ғоялардан фойдаланиш 82
**Yarashev A. N.** Xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida o‘quvchilarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta’limoti 86
**Otamurodova Sh.Q.** Diversifikatsiya tamoyilining talabalar kreativ potensialini yuzaga chiqarishdagi o‘rni 92
**Mamanazarova N. K.** Xalq ta’limi tizimi boshqaruvida marketing xizmatlarini tashkil etish mexanizmi 100
**Egamberdiyeva M.** Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy rivojlanish kompetentsiyasini shakllantirish usullari 107
**Шерматов Б. Б.** Педагогические условия реализации модели социально-профессиональной адаптации курсантов 112
**Нигманов Б. Б.** Формирование здоровьесберегающей модели поведения студентов в период дистанционного обучения 117
**Мухамеджанов Ш. М.** Педагогические основы формирования ценностного отношения школьников к здоровому образу жизни 122
**Нурманова Н. Қ.** Применение интегративного модульного обучения как метода повышения качества образования 129

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

**Алтинов И. И.** Ўзбекистонлик тиббиёт ходимларининг иккинчи жаҳон уруши йилларида кўрсатган жасорати (Қорақалпоғистон фарзанди, ҳарбий врач, заҳирадаги подполковник, профессор, Заиров Қаюм Сабирович хақида) 135
**Давлетбоев Д. Е.** Қорақалпоқ халқининг лочини 141

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

**Asanova U. S.** Tálimde xabar texnologiyalar páninde talabalardiń óz betinshe jumislarin shólkemlestiriwdiń ózine tán ózgeshelikleri ........ 148
**Isaqov J. A.** Grafik ta'lim samaradorligini oshirishda yagona grafikaviy tartibning ta'limiy imkoniyatlari ........ 152
**Isaqov J. A.** Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitiladigan o'quv fanlarida qo'llaniladigan grafik tasvir turlari ........ 157
**Polotov K. K.** To'g'ri chiziq va tekislikning perpendikulyarligi va ikki tekislikning o'zaro perpendikulyarligi ........ 162
**Тургунбаев Р. М., Алламбергенов И. Х., Аллаберганов Б. И.** Бўлғуси математика ўқитувчиларининг назарий тафаккурини шаллантиришда ўқув тезаурусидан фойдаланиш ........ 167
**Azatova S. N.** Tenglamalarni yechishga o'rgatishda o'quvchilarda tartibga solish universial o'quv harakatlarini shakllantirish haqida ........ 173

## БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

**Shanasirova Z. Y.** Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash hamda nutqini rivojlantirish yo`llari ........ 179
**Xurvaliyeva T. L.** Maktabgacha ta'limda art-texnologiyalardan foydalanish ........ 185
**Abdullayev A. A.** Tabaqalashtirish asosida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish mexanizmlari ........ 189
**Teshabayeva Z. S.** Bolalar rivojlanishida ijtimoiy institutlarning ro`li ........ 194
**Nosirova R. X.** Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila, maktab va mahalla bilan hamkorligining klasterli yondashuvlari ........ 198
**Xidoyatova N. A.** Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi ........ 204
**Karimjonova D. A.** Maktabgacha ta'lim muassasalarda tarbiyalanuvchilarni ijodkorligini rivojlantirishning interaktiv metodlari ........ 208
**Tursunboyeva M. D.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "ilm fan va tabiat" markazida bolalarni tabiat bilan tanishtirish shakllari ........ 213
**Abdijjaborova S. Q.** Milliy harakatli o'ynlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ahloqiy tarbiyalash ........ 218
**Soatov E. M.** Harakatli o'yinlar klasteri sharoitida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish jihatlari ........ 222
**Abdijjaborova S. Q.** Boshlang'ich sinf o'quvchilari harakat faoliyatini jismoniy vositalar orqali shakllantirish muammolari ........ 227
**Ismanova M. A.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof- muhit va uning muammolari ........ 231
**Atabekov F. O.** Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi ........ 237
**Buriyeva A.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "ilk qadam davlat dasturi" asosida o'yinlar orqali bolalarning qobilyatlarini rivojlantirish ........ 241
**Ilesova L. A.** Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida tarbiyachining tutgan o`rni ........ 244
**Abduraximov D. D.** Bolalarning muvozanat qobiliyatini shakllantirishda maxsus jismoniy mashqlar komplekslaridan foydalanish ........ 248
**Azamatova D. Sh.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida markazlar faoliyatini tashkil etishda steam texnologiyasini qo'llashning ahamiyati ........ 252
**Xodjaxanova K. X.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish muammolari ........ 257
**Ilesova L. A.** Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish ........ 261
**Abdullayeva L. U.** Bo`lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish ........ 267

# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA "ILM FAN VA TABIAT" MARKAZIDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH SHAKLLARI

***Tursunboyeva M. D.***
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** tabiat, usullar, texnologiya, dunyoqarash, ijodiy fikr, kognitiv, kuzatish, faoliyat, faollik markazlari, Ilm-fan va tabiat markazi, ekskursiya, sayr.

**Ключевые слова:** природа, методика, технология, мировоззрение, творческое мышление, познание, наблюдение, деятельность, центры деятельности, Центр науки и природы, экскурсия, прогулка.

**Key words:** nature, methods, technology, worldview, creative thinking, cognitive, observation, activity, activity centers, Science and Nature Center, excursion, walk.

Tabiat bilan tanishtirish insonni ma'naviy boyitishning bitmas-tuganmas manbasidir, bilamizki tabiatning cheksiz rang – barang olami bolalarda katta qiziqish uyg'otadi, ularni o'yinga, mehatga, badiiy faoliyatga undaydi. Biroq bolalar mustaqil ravishda tabiat bilan muloqot qilganda hamma narsani to'g'ri tushuna olmaydi, o'simliklar va hayvonlar bilan munosabatlari har doim ham to'g'ri shakllanmaydi. Bolani tabiat olami bilan tanishtirish, uning obyektlari va hodislalarini to'g'ri ko'rsatish uchun ularning tabiatni idrok etish jarayonini anglashga yo'naltirish kerak. Tabiatga ehtiyotkorlik va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish, bolalar u haqida hech bo'lmaganda boshlang'ich bilimga ega bo'lganda - o'simliklar yetishtirishning oddiy usullarini, hayvonlarga g'amxo'rlik qilishni o'zlashtirganda, tabiatni go'zalligini his qilishni ifoda eta olishlarida ko'rish mumkin. Avvalo tabiatni bilish uning predmet va hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlariga kirib borish tafakkurini rivojlantiradi va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Bolalar doimo u yoki bu shaklda tabiat bilan aloqada bo'lishadi. Yashil o'rmonlar va o'tloqlar gullar va kapalaklar, qo'ng'izlar, qushlar, jonivorlar, harakatlanuvchi bulutlar, yog'ayotgan qor parchalari, soylar, hatto yozgi yomg'irdan keyingi ko'lmaklar – bularning barchasi bolalarni e'tiborini tortadi, ularni quvontiradi. Shu bilan birga aqliy rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish xilma-xil shakllarda: “Ilm-fan va tabiat” nomli faollik markazida, amaliy faoliyatlarda, ekskursiyalarda, kundalik hayotda, kuzatishlarda (sayr vaqtida), suhbatlarda, hamda mehnatda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturiga asosan har bir bola uchun uning qobiliyati, imkoniyati, ruhiy va jismoniy holatlarini e’tiborga olgan holda zarur sharoitlarni yaratishga intilishi, har bir bola shaxsining betakrorligi va noyobligini hisobga olgan holda uning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlash, bolalarga pedagoglarning ta’lim-tarbiya jarayonida individual yondashuvini amalga oshirish imkonini beradi.«Bilish jarayonini rivojlantirish» sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida berilgan yillik mavzuviy reja asosida oy mavzulari va hafta mavzulariga asoslanib “Ilm-fan va tabiat” nomli faollik markazida va kun davomidagi turli faoliyatlarda olib boriladi.Oy mavzulari ichidagi hafta mavzulari bo‘yicha quyidagi rivojlantirish markazlari ishi tashkil etiladi:

*1. “Til va nutq” markazi.*
*2. “Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika” markazi*
*3.“San’at” markazi*
*4.“Ilm –fan va tabiat”markazi*
*5.“Syujetli –rolli o‘yinlar va drammalashtirish” markazi*

Asosan “Ilm-fan va tabiat” nomli faollik markazida tabiat bilan tanishtirish bo‘yicha haftalik mavzular yuzasidan ta’lim-tarbiyaviy jarayonlar olib boriladi. Shuningdek, tarbiyachi boshqa markaz faoliyatlarida ham, kun tarkibining boshqa qismlarida ham bolalarning tabiat haqidagi o‘z fikrlarini izchil bayon qilish va xulosalar chiqarish, atrof-olam xaqidagi o‘z kuzatishlarini bayon qilishlarida ham bolalarning tushunchalari, bilimlariga e’tibor beradi va uni rivojlantirishga harakat qiladi. Markazdagi faoliyat qiziqarli bo‘lishi, qo‘yilgan maqsad va vazifalarni hal etishi, ta’limiy materiallar va o‘yin anjomlari guruh bolalarining yoshiga mos, xavfsiz va ularda qiziqish paydo qilishi lozim. Markazdagi vazifa va topshiriqlar bolalarga tushunarli bo‘lishi kerak. Har bir markaz haftaning boshida tayyorlanadi va jihozlanadi.Markaz ishi davomida tarbiyachi bolalar egallayotgan bilim, malaka, ko‘nikmasini kuzatadi, tavsiya etilgan materiallarning bolalar uchun qanchalik qiziqarli, tushunarli va osonligiga e’tibor qaratadi. Agar kerak bo‘lsa, tarbiyachi ta’limiy materiallarni to‘ldiradi yoki o‘zgartiradi. Kuzatuv natijalari asosida tarbiyachi tabiat bilan tanishtirish yuzasidan bola va uning ota-onalari bilan yakka tartibda ishlashni rejalashtiradi.

Har hafta oxirida tarbiyachi bolalarning tabiat bilan tanishtirish yuzasidan olib borilgan faoliyatni tahlil qiladi, bolalar nimalarni bilib olganini, nimani bilishni hoxlashlarini oʻrganadi, har bir bolaning qiziqishi va ehtiyojini, kattalar va tengdoshlari bilan oʻzoro muloqatini kuzatadi, xulosalaydi. Shu bilan birga materiallar qay darajada qiziqarli va savodli tayyorlanganligi, qoʻyilgan maqsadga erishildimi yoki yoʻqmiligi chuqur tahlil etiladi. Shundan soʻng keyingi haftaga tayyorgarlik koʻriladi.

Shunday qilib, rivojlantirish markazlarida toʻgʻri tashkil etilgan ish har bir bolaga oʻzi yoqtirgan faoliyat bilan mashgʻul boʻlishga, oʻz kuchi va qobiliyatini sinab koʻrishga, kattalar va tengdoshlari bilan birgalikda faoliyat yuritishga, turli tajribalar oʻtkazish va taxlil qilishga imkon beradi, aynan shular rivojlantiruvchi ta'lim negizini tashkil etadi.

Tarbiyachi amaliy faoliyatlarda rasmlarni koʻrish, badiiy asarlarni oʻqish, hikoya, diafilm va kinofilmlarni koʻrsatish, tabiatdagi mehnatdan foydalanadi. Bolalar egallagan bilim, malaka, koʻnikmalarini mehnat va oʻyinlarda amalda qoʻllaydilar.

*Faoliyat ishlanmasi namunasi*

*Mavzu: Yongʻoq daraxti*

Maqsad: Bolani yongʻoq daraxtining tashqi koʻrinishi, mevasi, bargining tuzilishi bilan tanishtirish. Uni asliga qarab va rasmlardagi tasviri asosida farqlash koʻnikmasini tarkib toptirish.

Daraxtlarning yaxshi oʻsishida kattalarning mehnati haqidagi tasavvurni mustahkamlash.

Kutilayotgan natija: Yongʻoq daraxtini asliga qarab va rasmlardagi tasviri asosida farqlay oladilar.

Kerakli jihozlar: yongʻoq daxtining rasmi, mevasining rasmi, mavzuga mos suratlar, tarqatma materiallar.

Mashgʻulotning borishi:

*Tarbiyachi:* Bolalar, bogʻimizda mevali daraxtlar koʻp. Bugun bogʻimizda oʻsadigan mevali daraxtlardan biri haqida suhbatlashamiz. Bu qanday daraxt? (bolalar javoblari)

Yongʻoq daraxtining tanasi qanday?

Barglari qanday?

Mevasining nomi nima?

Yongʻoq daraxti qachon meva beradi?

Bogʻimizdagi daraxtlarni kim parvarishlaydi?

Bogʻbon ishini kuzatganmisiz?

*Tarbiyachi:* To‘g‘ri, bolajonlar, yong‘oqni daraxtdan  kuz faslida yig‘ib olinadi. Bog‘bon doimo daraxtlarni parvarishlab suv quyib turadi. SHuning uchun bizning bog‘imizdagi daraxtlar serhosil bo‘ladi.

Yong‘oqni bolalar, qishin-yozin iste’mol qilsak bo‘ladi, ularni quruq erda saqlab, yil davomida  iste’mol qilsak bo‘ladi. Yong‘oq dasturxon ko‘rki. Biz yong‘oqni ko‘pincha magiz bilan qo‘shib istemol qilamiz-a? Qanday mazali bo‘ladi?

Yong‘oq och jigar rangda bo‘ladi. Yong‘oqni  silab ko‘ramiz. Yong‘oq g‘adur-budur ekan. Yong‘oqni eb ko‘rib ta’mini aytamiz? Yong‘oq mag‘izlarini tarbiyachi bolalarga qoshiqlarga solib ediradi. Ta’mi qanday ekan? (Mazali) Yong‘oqdan turli pishiriqlar pishiriladi. (yong‘oqli pirog, yong‘oqli muzqaymoq, yong‘oqli bulochka)

“Yong‘oq daraxti haqida gapiramiz” o‘yini o‘tkaziladi.

**“Yong‘oq daraxti haqida gapiramiz” o‘yini**



**“Yong‘oqdan   nimalar tayyorlanadi” o‘yini**







**Adabiyotlar:**

1. Sh. A. Sodiqova, M. A. Rasulxo'jayeva «Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi» «Fan va taxnologiya»- T.: 2012.
2. O.Hasanboyeva, X.Jabborova, Z.Nodirova "Tabiat bilan tanishtirish metodikasi" «Cho'lpon» nomidagi nashriyot matbasi -T.: 2016.
3. Z.Y.Shanasirova Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va metodikasi T: 2021
4. D.U.Isamova Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish muammosining ilmiy–nazariy tahlili New innovation and national education 2022- 40 b
5. Sh. A.Sadikova, D.Sh Azamatova Maktabgacha ta`limda markazlar faoliyatining pedagogik innovatsion klasteri SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7

**РЕЗЮМЕ**

Mazkur maqolada bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ilmiy-nazariy asoslari, bolalarni tabiat bilan tanishtirish usullari, metod va vositalari haqida yoritilgan bo'lib, maqola maktabgacha ta'lim mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar foydalanishlari uchun tavsiya etiladi.

**РЕЗЮМЕ**

В данной статье описаны научно-теоретические основы приобщения детей к природе, методы, приемы и средства приобщения детей к природе. Статья рекомендуется для использования студентами специальности дошкольное образование.

**SUMMARY**

This article covers the scientific and theoretical foundations of introducing children to Nature, Methods, methods and means of introducing children to nature, and the article is recommended for use by students studying in the specialty of preschool education.

ISSN 2181-7138

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеў институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИЎ»**
**№** 1/1
Нөкис — 2023

Басып шығыўға жуўапкер:
*А. Тилегенов*

Баспаға таярлаған:
*А. Тилегенов, Р. Утепов*

Компьютерде таярлаған:
*П. Реймбаев*

***Мәнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54***
***Тел.: 224-23-00***
***e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,***
***mugallim-pednauk@umail.uz***
***www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz***

***Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жәрияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлыўматларға автор жуўапкер.***

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 18.01.2023. Форматы 70x100$^{1}/_{8}$
«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.
Шәртли б.т. 52,5 . Нашр. т. Нусқасы _____ Буйыртпа №